



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 23-iyun, № 126 (9297)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI OZARBAYJON ELCHISINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-iyun kuni mamlakatimizdagi diplomatik missiyasini yakunlayotgan Ozarbayjon Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Guseyn Guliyevni qabul qildi.



Davlatimiz rahbari Ozarbayjon elchisining samarali faoliyati hamda ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini rivojlantirish hamda mustahkamlashga qo'shgan shaxsiy hissasini alohida qayd etdi.

Oliy va boshqa darajalarda jadal muloqotlar yo'lga qo'yildi. Savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda sezilarli natijalarga erishildi: so'nggi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi karrasiga oshdi, Ozarbayjon sarmoyasi ishtirokida 280 ta korxona tashkil etildi, Qo'shma investitsiya kompaniyasi ta'sis qilindi.

Ayni paytda geologiya, qishloq xo'jaligi, transport, shaharsozlik, to'qimachilik, farmatsevtika va boshqa tarmoqlardagi kooperatsiya loyihalari faol pallaga kirgan.

Madaniy-gumanitar almashinuv sohasida ham muhim dasturlar amalga oshirilmoqda.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari elchi Guseyn Guliyevga O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni mustahkamlashga qo'shgan katta hissasi uchun "Mehnat shuhrati" ordenini topshirdi.

Elchi, o'z navbatida, uning diplomatik missiyasiga berilgan yuksak baho hamda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi keng ko'lamli hamkorlik rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlayotgani uchun mamlakatimiz yetakchisiga chuqur minnatdorlik bildirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

KASBIY TA'LIMDA XUSUSIY SEKTOR ISHTIROKI KENGAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev
xususiy kasbiy ta'limni
rivojlantirish chora-tadbirlari
yuzasidan taqdimot bilan
tanishdi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari uchun zamonaviy kasb va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash, aholini mehnat bozori talablariga mos kasblarga o'qitish bandlikni ta'minlash va daromadlarni oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Shu bois keyingi yillarda kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish, o'quv dasturlarini ish beruvchilar ehtiyojiga moslashtirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Taqdimotda kasbiy ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda xususiy sektorning imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha yangi choralar muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, kelgusi uch yilda xususiy sektor ulushini oshirish orqali xalqaro standartlar asosida ochildan o'quv va baholash markazlarining sonini hozirgi 50 tadan 200 ga yetkazish, xususiy kasbiy ta'lim bilan har yili 500 ming nafar aholini qamrab olish maqsad qilingan. Ayni paytda bu ko'rsatkich 45 ming nafarni tashkil etmoqda.

Buning uchun 300 dan ortiq o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqilib, xalqaro talablarga moslashtiriladi. Kamida 1 ming nafar o'qituvchi va ta'lim ustalarining malakasi oshiriladi. Ushbu dasturlarni moliyalashtirish uchun Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasidan 500 milliard so'm yo'naltiriladi.

Taqdimotda tadbirkorlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlar davomida bildirilgan taklif va muammolar ham ko'rib chiqildi. Muloqotlarda tadbirkorlar tomonidan xususiy kasbiy ta'lim markazlari uchun bojxona boji va ijtimoiy soliq bo'yicha imtiyozlar, imtiyozli kreditlar, ayrim xarajatlarni kompensatsiya qilish, yangi qurilgan binolar uchun tashqi infratuzilmani byudjet hisobidan barpo etish, yer uchastkalari qiymatini foizsiz bo'lib to'lash, bo'sh bino va maydonlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish masalalari ko'tarilgan.

Shu munosabat bilan xususiy kasbiy ta'lim tashkilotlari uchun zarur asbob-uskuna va jihozlarni bojxona bojidan ozod qilish, xorijiy o'qituvchilar, mutaxassis va ustalar uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash taklif qilindi.

Shuningdek, 2 yillik imtiyozli davr bilan 7 yilgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi. Bino qurilishi va ta'miri, zarur uskunalarini xarid qilish uchun olingan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarning 7 foizi qoplab beriladi.

Xorijiy mutaxassislar va malakali o'qituvchilarni jalb qilish xarajatlarning 50 foizi kompensatsiya qilinadi. Kasbiy malakani baholash uskunalar va dasturiy mahsulotlar xarajatlarning 30 foizi, xorijda tan olinadigan va milliy kasbiy malaka sertifikatlari xarajatlarning 50 foizi miqdorida kompensatsiya to'lanadi.



MAHALLA TIZIMI RIVOJIGA ILMIY YONDASHUV

Prezident Shavkat Mirziyoyev mahallalar
faoliyatini raqamlashtirish va Mahallani rivojlantirish
milliy institutini tashkil etish yuzasidan
taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda joriy yil "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilingani munosabati bilan aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, mahallalar infratuzilmasi va ijtimoiy muhitini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada yil yakuniga qadar 1 million aholini doimiy ish bilan ta'minlash, 181 ming oilani kambag'allikdan chiqarish, kambag'allikdan xoli mahallalar sonini 2,5 barobar oshirib, 3,5 mingga yetkazish, ishsizlik va kambag'allik darajasini 4,5 foizgacha tushirish maqsad qilingan.

Yil boshida infratuzilma, aholi turmush darajasi, biznes faollik va moliyaviy imkoniyatlari cheklangan 37 ta "og'ir" tuman hamda 915 ta "og'ir" mahalla bilan ishlash bo'yicha yangi tizim yaratilgan edi. Buning uchun barcha zarur mablag'lar ajratildi.

Xususan, respublika byudjetidan "og'ir" tuman va mahallalarda infratuzilmani yaxshilash uchun

12 trillion so'm yo'naltirildi. Bunga qo'shimcha ravishda har bir shunday tumanga 50 milliard so'mdan, har bir mahallaga 2 milliard so'mdan mablag' berildi. Viloyat hokimliklari tomonidan ham mazkur 37 ta tumanning har biriga 10 milliard so'mdan, 915 ta mahallaning har biriga esa 1 milliard so'mdan mablag' ajratildi.

Natijada tuman hokimliklari va mahalliy Kengashlar "og'ir" tuman va mahallalar uchun qo'shimcha yana 4 trillion so'm mablaqqa ega bo'ldi.

Taqdimotda mahallalarni qo'llab-quvvatlash uchun Mahallalar faoliyatini rag'batlantirish jamg'armasiga yana 200 milliard so'm ajratilgani ma'lum qilindi. Shuningdek, mahallalar uchun 300 milliard so'mdan ziyod qo'shimcha doimiy daromad manbalari yaratilmoqda.

Jumladan, mahalla hududida sanitariya va noqonuniy qurilish bo'yicha jarimalarning bir qismi mahalla byudjetlariga yo'naltiriladi. Yer va mol-mulk soligidan tushadigan

tushumlarning ulushi 10 foizdan 15 foizga oshiriladi. Bo'sh maydonlarni ijaraga berish va ayrim binolarni sotishdan tushadigan mablag'lar ham mahallalarning o'zida qoldiriladi.

Ushbu mablag'lar birinchi navbatda ichki yo'llarni ta'mirlash, piyodalar yo'lakchalarini tashkil qilish, bolalar va sport maydonchalarini qurish, mahalla bog'larini barpo etish, ehtiyojmand oilalar bandligini ta'minlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Shu bilan birga, jinoyat yo'lga adashib kirib qolgan 245 ming fuqaroni kasb va hunarga o'qitish, ularni ijtimoiy hayotga qaytarish bo'yicha alohida ishlar tashkil qilinadi.

Taqdimotda mahallalar faoliyatini raqamlashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. "Mahalla yettiligi" tomonidan uyma-uy o'rganishlar davomida 1 million 365 ming nafar aholining muammolari aniqlangani qayd etildi.



Uchrashuv

IZCHIL DAVOM ETAYOTGAN AMALIY SHERIKLIK

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Koreya Respublikasi Ichki ishlar va xavfsizlik vaziri Yun Xo Chjun boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Muloqot chog'ida O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarining bugungi holati va istiqbollari muhokama qilindi. Raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, elektron hukumat tizimini takomillashtirish va bu sohada qonunchilikni rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularga tezkor javob qaytarish borasida ikki tomonlama hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada Janubiy Koreya tajribasi asosida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholini evakuatsiya qilish va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan raqamli texnologiyalarni hududlar hamda mahallalar darajasida joriy etish imkoniyatlari haqida

fikr yuritildi. Bunda mahalliy Kengashlar deputatlarining amaliy loyihalarni joylarda samarali tatbiq qilishdagi ahamiyati ta'kidlandi.

Muloqot davomida mamlakatimizdagi koreys diasporasining ikki xalq o'rtasida do'stlik va madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashdagi o'rni alohida e'tirof etildi. O'z navbatida, 2027-yilda koreys diasporasi O'zbekistonda yashayotganining 90 yilligi keng nishonlanishi aytiladi.

Uchrashuv yakunida tomonlar parlamentlararo va hududlararo hamkorlikni yanada kengaytirish orqali o'zaro manfaatli tashabbus va loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda amaliy sheriklikni izchil davom ettirishga tayyor ekanligini bildirdi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

KAPITAL BOZORI: XALQARO STANDARTLAR SARI

Prezident Shavkat Mirziyoyev
kapital bozorini yanada rivojlantirish
chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan
tanishdi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish, xususiy lashtirish jarayonlarini jadallashtirish va investorlar uchun qulay muhit yaratish bo'yicha ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda kapital bozorini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tgan oyda mamlakatimiz moliyaviy hayotida ulkan voqea ro'y berdi. Ilk bor London va Toshkent fond birjalariida Milliy investitsiya jamg'armasi aksiyalari birlamchi ommaviy joylashtirildi. Bu iqtisodiyotimizning xorijiy sarmoya uchun ochiq va ishonchli maydonga aylanib borayotganini yana bir bor namoyon etdi.

Ta'kidlanganidek, xalqaro investorlarning O'zbekiston kapital bozoriga qiziqishi oshmoqda. Ayniqsa, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi nufuzli xalqaro moliyaviy institutlar o'z obligatsiyalarini milliy valyutada mahalliy fond bozorida chiqarishga qiziqish bildirmoqda.

Buning uchun zamonaviy infratuzilma, xalqaro standartlarga mos huquqiy rejim, soliq imtiyozlari, eng muhimi, biznes yuritishning ishonchli va shaffof muhitini shakllantirish zarurligi qayd etildi.

Shu bois xalqaro moliya tashkilotlari bilan birgalikda yangi tahrirdagi "Kapital bozori to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. 16 ta bob va 123 ta moddadan iborat ushbu hujjat kapital bozorini zamonaviy bozor normalari asosida tartibga solish, investorlar huquqini himoya qilish, bozor infratuzilmasini mustahkamlash va yangi moliyaviy vositalarni joriy etishga qaratilgan.

Qonun loyihasida xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish nazarda tutilmoqda. Xususan, Xalqaro derivativlar va svoplar assotsiatsiyasi standartlarga muvofiq, mamlakatimizda opsiyon, svop, fyuchers va forvard kabi hosila moliyaviy vositalar, shuningdek, netting shartnomasi asosida bitimlar tuzish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Banklar tomonidan garov bilan qoplangan obligatsiyalar va ipoteka kreditlari majburiyatlari asosida maxsus obligatsiyalar chiqarishning huquqiy asoslari yaratilmoqda. Bu banklar uchun uzoq muddatli resurslarni jalb qilish, ipoteka

bozorini rivojlantirish va aholi uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Islom moliyasi vositalarini joriy etishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Yurtimizda ilk bor sheriklik, ijara, savdo va agentlik sukuki kabi islom moliyasi turlarini o'z ichiga olgan "sukuk" qimmatli qog'ozlarini chiqarish shartlari belgilanmoqda.

Taqdimotda qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini takomillashtirish masalalari ham ko'rib chiqildi. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining vakolatlari kengaytirilib, unga dividendlarni markazlashgan holda to'lash, xorijiy banklarda vakillik hisobvraqolari ochish huquqi berilmoqda.

Shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan mijozlarning qimmatli qog'ozlarini saqlash, hisobini yuritish va ular bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha professional xizmatlar joriy etiladi. Chet ellik nominal saqlovchilar uchun mahalliy bozorga kirish tartibini soddalashtirish orqali xorijiy institutsional investorlarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi.

Regulyator vakolatlarini xalqaro talablar va standartlarga muvofiq lashtirish ham nazarda tutilmoqda. Bu bozor ishtirokchilari faoliyatini samarali nazorat qilish, axborot oshkorligini ta'minlash, qonunchilik buzilishi holatlariga tezkor munosabat bildirish va investorlar huquqini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Milliy korxonalar aksiyalarini xalqaro moliya bozorlariga joylashtirish va investorlarning aktivlarini ishonchli himoya qilish maqsadida 10 dan ziyod qonun va kodekslarga o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Prezidentimiz kapital bozori iqtisodiyotga uzoq muddatli resurslarni jalb qilish, korxonalarni transformatsiya qilish va xususiy investitsiyalar oqimini kengaytirishda muhim manba ekanini ta'kidladi.

Mutasaddirlarga yangi tahrirdagi "Kapital bozori to'g'risida"gi qonun loyihasini xalqaro hamkorlar bilan muhokama qilish, bozor infratuzilmasini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, yangi moliyaviy vositalarni joriy etish va soha uchun kadrlar tayyorlash yuzasidan topshiriqlar berildi.

O'ZA.

Munosabat

BARQAROR TARAQQIYOT YO'LIDAGI HAMKORLIK

Bugungi kunda jahonda kechayotgan murakkab siyosiy jarayonlar, geosiyosiy ziddiyatlar va global iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar xalqaro hamkorlikning yangi shakl hamda mexanizmlarini taqozo etmoqda.

Ana shunday sharoitda O'zbekiston – Germaniya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni milliy manfaatlarimizga mos ravishda yanada rivojlantirish masalalari nafaqat ikki mamlakat siyosiy va jamoatchilik doiralarida, balki yaqin hamda uzoq xorij ekspertlari, xalqaro jammiyat tomonidan ham katta qiziqish bilan kuzatilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning mamlakatimizga rasmiy tashrifi va ikki davlat rahbarlarining o'zaro muzokaralari alohida ahamiyat kasb etdi.

Uchrashuvlar davomida siyosiy muloqotni yanada faollashtirish, savdo-iqtisodiy,

investitsiyaviy, sanoat, ta'lim, innovatsiya va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalalari muhokama qilindi. Eng muhimi, mazkur tashrif O'zbekiston – Germaniya o'rtasidagi o'zaro ishonch hamda strategik sheriklik munosabatlari izchil mustahkamlanib borayotganining amaliy ifodasi bo'ldi. Muzokaralar natijalari ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, zamonaviy texnologiyalar, investitsiyalar va ilg'or tajribalarni jalb etish orqali o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish uchun mustahkam zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Germaniya – O'zbekistonning

o'ttiz yildan ortiq mustaqil taraqqiyot davridagi ishonchli hamkorlardan biri. So'nggi yillarda kuzatilgan ikki tomonlama siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ilmiy-texnologik, madaniy-gumanitar yo'nalishlardagi munosabatlar sur'atining jadallashuvini Berlin, Toshkent va Samarqandda bo'lib o'tgan qator oliy darajadagi uchrashuvlar davomida erishilgan kelishuvlardan ham ko'rish mumkin. Ikki davlat vakillarining muntazam uchrashuvlari va birgalikda olib borayotgan amaliy ishlari – energetika, uning qayta tiklanadigan manbalaridan samarali foydalanishga qaratilgan loyihalar, sanoat klasterlarini rivojlantirish, raqamlashtirish va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qilayotir.



Muborak sarchashmalar

YAPON QIZINI HAYRATGA
SOLGAN SAN'AT

Bundan roppa-rosa 23 yil muqaddam yapon qizi Emi Imaxore O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix institutida tadqiqot ishlari olib borish uchun yurtimizga keladi. O'zbek milliy madaniyati, etnografiyasini o'rganishga asostdii kirishgan Emi olis Shofirkonning Hovlioyon qishlog'iga bordiyu xalq amaliy san'ati ustasi Zuhra Obloberdiyevaga ipsiz bog'lanib qoldi. Uning xonadonida ikki yil istiqomat qilib, o'zbek tilini, milliy urf-odatlarini, pillachilik va bo'z to'qish, xususan, kashtachilik sirlarini atroflicha o'rgandi.

— Shundan buyon Emi o'z qizimdek bo'lib qolgan, — deydi o'sha kunlarni eslkaran Zuhra opa. — Hamkorligimiz hali-hanuz davom etmoqda. E'tiborlisi, Shofirkonning qo'l mehnatiga asoslangan kashtachilik maktabini mukammal o'rganib, tadqiq qilgan oddiy yapon qizi professor darajasiga yetishdi.

Yaqinda Tokaya universiteti professori Emi Imaxore O'zbekistonga, qadrdon xonadonga kelib, Zuhra opaga "Kashtachilik ayollar dunyosini qanday o'zgartiradi?" deb nomlangan kitobini taqdim etdi. Unda nafaqat Shofirkon, balki Nurota, Boysun, Shahrisabz kashtachilik maktablarining temuriylar davridan boshlab to hozirga qadar rivojlanish tarixi, o'ziga xos jihatlari, bu hunarning xotin-qizlar hayotidagi o'rni va ahamiyati tadqiq qilingan.

— Zuhra opa va uning shogirdlari qo'lida jilo topgan so'zanalar mo'jizaning o'zginas, — deydi Emi Imaxore. — Ulardagi naqshlarda, ranglarda yurtingizning betakror tabiati, o'zbek ayolining qalb kechinmalari, orzu-umidlarini ko'rasiz. So'zanalar nafaqat meni, balki vatandoshlarimni ham hayratga solmoqda. 2024-yilda Tokioda Zuhra opaning shaxsiy ko'rgazmasini o'tkazganimizda bunga yana bir karra shohid bo'lganman. Men kishidan o'ta sinchkovlik, qunt, yuksak did, ko'z nuri va qalb qo'rini talab etadigan bu san'atni Yaponiyada targ'ib qilishdan mamnunman.



Shu o'rinda, ildizi olis o'tmishga borib taqaladigan Shofirkon kashtachilik maktabi va unga qayta hayot bag'ishlagan Z. Obloberdiyeva faoliyati xususida qisqacha to'xtalsak. Institutni tamomlab, faoliyatini oddiy qishloq o'qituvchisi sifatida boshlagan, bolaligidayoq buvisi Zubaydaxon, onasi Zulayho ayadan kashtachilik sirlarini o'rgangan qahramonimiz, o'z ta'бири bilan aytganda, milliy naqshlar ichida yashab kam bo'lmadi. Viloyat hokimligi hamda BMTning O'zbekistondagi o'sha paytdagi doimiy vakili Xolid Malik va boshqa soha fidoyilarining qo'llab-quvvatlashi bilan Shofirkonda kashtachilik maktabiga asos soldi. Respublikamizning turli go'shalaridan kelgan o'nlab yoshlarga hunar o'rgatdi. Muhimi, bir joyda to'xtab qolmadi. Hindistonda bo'lib, tabiiy bo'yoqlar tayyorlash sir-asrorini o'zlashtirdi. Indoneziya, Turkiya, Italiya, Yaponiya kabi davlatlarda tashkil etilgan nufuzli xalqaro ko'rgazmalarda qatnashdi.

— Ona yurtimizning sadag'ami ketsang arziydi, — deydi Zuhra opa. — Qay bir mamlakatga bormay "Mening Vatanim O'zbekiston", degan chog'imda odamlarning chehrasi yorishadi. Niyatim xalqimizning boy merosini dunyoga tanitish edi. Maqsadimga yetdim. Qo'l mehnatiga asoslangan kitobim ham chop etildi. U xalq amaliy san'ati yo'nalishida saboq olayotgan talabalari, shu hunarga ixlos qo'ygan yoshlar uchun qo'llanma vazifasini o'tayapti.

Darvoqe, har ikki yilda Tokaya universitetining bir guruh talabalari "Do'stlik" ordeni sohibi Zuhra Obloberdiyeva xonadonida bo'lib, kashtachilik sir-asrorlarini o'rganmoqda. Kunchiqar yurt yoshlaridagi ibrat olsa arizgulik qiziqish, intilish va mas'uliyatni ko'rib, xonadon bekasi o'zini qo'yarga joy topolmay qoladi.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").



Yoz faslida bolajonlar maroqli dam olish, sog'lomlashtirish, sport va turli ko'ngilochar mashg'ulotlarda ishtirok etib, o'z iqtidorini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Andijon tumanidagi "Bog'ishamol" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi ham aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Oromgohda zamonaviy yotoqxona, oshxona, kutubxona, basseyn, sport maydonchalari mavjud. Har bir dam olish mavsumi 12 ta alohida yo'nalishga bag'ishlangan kunlar asosida tashkil etiladi. Xususan, "Vatanparvarlik kuni" doirasida harbiy qismlar hamda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar vakillari oromgohga

kelib, o'z faoliyati haqida qiziqarli suhbatlar o'tkazadi. Shuningdek, bolajonlar harbiy-vatanparvarlik ruhidagi bellashuvlarda ishtirok etadi. "Sport kuni"da esa o'nlab turlar bo'yicha musobaqalar tashkil qilinib, g'oliblar taqdirlab boriladi.

— Bundan tashqari, o'g'il-qizlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish

Yozgi ta'til

maqsadida sayohatlar uyushtiraymiz, — deydi oromgohning bosh tarbiyachisi Tolibjon Mirzajonov. — Viloyatimizdagi 400 dan ziyod sayyohlik obyektlarini asosiy turistik yo'nalishlar orqali tomosha qilish imkoniyati bor. Bu bolalarning dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi deb ishonamiz.

Andijon tumanining bahavo va so'lim hududida joylashgan ushbu oromgohda sportning o'ndan ortiq turlari bilan shug'ullanish, kasb-hunar sirlarini o'rganish hamda intellektual salohiyatni rivojlantirish uchun ham

barcha sharoitlar yaratilgan.

— Bu yerda har bir kun o'ziga xos lahzalarga boy bo'lmoqda, — deydi Andijon shahridagi 24-umumta'lim maktabi o'quvchisi Sarvinov Haydarova. — Menga, ayniqsa, basseynida cho'milish va tikuvchilik to'garagi yoqdi.

Darhaqiqat, "Bog'ishamol"da yozgi dam olish mavsumi bolajonlarning orzu-havaslariga mos, mazmunli va unutilmas taassurotlarga boy tarzda o'tmoqda.

Saminjon HUSANOV
("Xalq so'zi").



SOG'INCHDAN YARALGAN IJOD

Qarshimizda turgan kema maketi Bekbergen Allasugurov yasayotgan yigirma beshinchi hunarmandchilik mahsuli. Bir qarashda oddiy, ammo har bir kema maketi ortida Orol haqidagi butun bir xalq xotirasi, bir paytlar shovullab turgan va keyinchalik yo'qotilgan dengiz qismati mujassamday...

Oramizdagi odamlar

Bekbergen og'a bilan suhbatlashar ekansiz, uning kemalarga mehri tasodif emasligini anglaysiz. U shu yurt farzandi, Nukus shahrida istiqomat qiladi. Bolaligi va yoshligi Orol haqidagi hikoyalar, baliqchilar, Mo'ynoq porti haqidagi xotiralar bilan o'tgan.

Endi Orol dengizining katta qismi yo'q. Bir paytlar dunyodagi to'rtinchi yirik ichki suv havzasi sanalgan Orol XX asrning ikkinchi yarmida qisqara boshladi va deyarli qurib bitdi. Natijada millionlab gektar suv maydoni yo'qoldi, baliqchilik xo'jaliklari inqirozga uchradi, kemalar sohildan o'nlab chaqirim uzoqda qum bag'rida qolib ketdi.

...Mo'ynoqdagi kemalar qabristonini ko'rish uchun dunyoning turli mamlakatlardan sayyohlar keladi. Qumlar bag'rida zang bosgan kemalar insoniyat tarixidagi yirik ekologik fojia ramziga aylangan.

— Men har gal yangi kema maketini yasaganimda, Orolga suzib yurgan kemalarni eslayman. Balki shuning uchundir bu hunar hayotim mazmuniga aylanganday, — deydi Bekbergen og'a.

Ha, uning jajji kemalari ham ma'lum ma'noda ana shu xotiralarni saqlab qolishga xizmat qilmoqda. Bugun usta navbatdagi kema maketi ustida ishlamoqda. Biroq uning aytishicha, bu ehtimol oxirigisi ham bo'lishi mumkin. Sababi oddiy: uy sharoitida bunday nozik hunar bilan shug'ullanish tobora qiyinlashmoqda. Yozning jazirama kunlarida xona ichida



ishlash mushkul. Kechasi ishlasa, qo'shnilar xalaqit berishdan imyanadi. Shu bois Bekbergen aka hovlisida kichik ustaxona qurishni orzu qiladi. Uning aytishicha, bu bo'yicha turli tashkilotlarga murojaat etgan. Maslahatlar berilgan, ammo hozircha amaliy yordam masalasi ochiq qolmoqda.

— Agar alohida ustaxona bo'lsa, yoshlarni shogirdlikka olardik, hunar sirlarini o'rgatardik, ko'rgazmalar tashkil qilardik. Chunki bugun kema maketchiligi bilan shug'ullanayotganlar juda kam, — deydi u.

Vaholanki, bu tashabbus nafaqat bitta hunarmand faoliyatini qo'llab-quvvatlash, balki milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, yoshlarni kasbga yo'naltirish va Orol

tarixi bilan bog'liq madaniy xotirani saqlashga ham hissa qo'shgan bo'lar edi.

— Kema maketini yasash sabr talab qiladi, — deydi usta so'zini davom ettirib. — Avval uni tasavvurimda boyitaman, keyin qog'oza

oshiradi. Shu bois bu asarlarni haqiqiy san'at namunasi sifatida baholash mumkin.

E'tiborlisi, bugungi kunda ustaga mahalliy va xorijiy sayyohlardan buyurtmalar tushmoqda. Ayniqsa, avtotransport va samolyotda olib ketishga qulay bo'lgan, Orol dengizida suzgan kemalarni eslatuvchi kichik hajmdagi maketlarga talab yuqori. U esa qo'lidan kelganicha Orol haqidagi xotiralarni kema maketlari orqali jonlantirishga harakat qilmoqda. Zero, insonning haqiqiy boyligi uning mehnatidadir.

Bekbergen Allasugurov 1987-yildan Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi kadrlar bo'limida ishladi, keyinchalik Nukus shahar ichki ishlar bo'limida xizmat qildi. Qo'l jangi va og'ir atletika bo'yicha musobaqalarda qatnashib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan. Ammo hayot har doim ham inson izmiga bo'ysunmas ekan. Salomatligida yuzaga kelgan muammolar tufayli 1994-yilda nafaqaga chiqishga majbur bo'ldi, Il guruh nogironi.

Shunday bo'lsa-da, u shukronalik tuyg'usini hayotining ajralmas qismiga aylantirgan insonlar sirasidan. Mehnat orqali dardni yengish mumkinligini o'z hayoti bilan isbotlab, atrofida qilarga ham ibrat bo'lib kelmoqda. Hozirda u bir buyrak bilan hayot kechirishga qaramay, sevimli hunari bilan mutazam shug'ullanmoqda. Uning eng katta orzusi esa — o'z hunarini yanada rivojlantirish, keng targ'ib qilish va kelajak avlod uchun munosib shogirdlar tayyorlab qoldirish.

...Qumlar bag'rida qolgan haqiqiy kemalar dengizda qayta suzmasligi mumkin. Ammo Bekbergen akaning ustaxonasida yaratilayotgan maketlar Orol xotirasini kelajak avlodlarga yetkazishda davom etaveradi.

G'ayrat OTAJONOV
("Xalq so'zi").

O'zbekiston yo'lsizligidagi megaloyiha



Xorazm viloyatida barpo qilinayotgan O'zbekistondagi ilk pullik avtomobil yo'li — Urganch va Xiva shaharlarini bog'lovchi avtomagistral qurilishi jadal sur'atda davom etmoqda.

Bunyodkorlik

Xalqaro standartlar asosida qurilayotgan 4 tasmali yo'lining uzunligi 35 km. bo'lib, uning tarkibida ko'plab murakkab muhandislik inshootlari mavjud. Jumladan, 15 ta ko'priklar, 8 ta yo'lo'tkazgich, 5 ta piyodalar yer osti o'tish joyi hamda 115 ta suv inshootini qurish

rejalashtirilgan. Yo'lining o'tkazuvchanlik qobiliyati sutkasiga 20 mingdan ortiq avtotransport vositalarini tashkil qiladi. Ayni kungacha loyihadagi qurilish ishlarning teng yarmi bajarildi.

— Ushbu yo'l qurilishida Turkiyada qo'llaniladigan zamonaviy yechimlardan keng foydalanaymiz, — deydi xalqaro ekspertlar guruhi rahbari Mehmet Ali Alkan. — Loyihada raqamli boshqaruv tizimlari keng qo'llaniladi. Jumladan, transportlar oqimini sun'iy intellekt yordamida boshqarish rejalashtirilgan. Bu quurilmalar yuk mashinalari, avtobuslar, mikroavtobuslar, yengil avtomobillarni alohida aniqlaydi,

vazni va soniga qarab hisob-kitob qiladi. Yangi yo'lda transportlarning to'siqsiz harakatlanishi tufayli manzila yetib borish vaqti 3 barobar qisqaradi, ya'ni Urganchdan Xivaga hozir mavjud yo'lda tirbandlik va chorralarda to'xtash tufayli 1 soatda yetib borilsa, yangi yo'lda buning uchun atigi 17 daqiqa vaqt sarflanadi.

Hozirgi kunda yo'l qurilishiga respublikamizning turli viloyatlaridan va Turkiyadan yuqori malakali mutaxassislar jalb qilingan. Bu yo'l nafaqat aholi va sayyohlarga qulaylik yaratadi, balki hududning investitsiyaviy jozibadorligini ham oshiradi, Xorazm viloyatini mamlakatning muhim transport va turizm markazlaridan biriga aylantirishga xizmat qiladi.

Odilbek ODAMBOYEV
("Xalq so'zi").

23-iyun kuni soat 22:00 da O'zbekiston milliy terma jamoasi Portugaliya futbolchilariga qarshi maydonga tushishi munosabati bilan yo'lovchilarga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida Toshkent metropoliteni shu kuni tungi soat 01:00 gacha xizmat ko'rsatadi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 629. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mulligiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhili S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.15 Topshirildi — 00.20

1 2 3 4 5 6